

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

NOYABR, 2025-YIL



O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, noyabr

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-8337-2-4

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, noyabr, 2025. – 52 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 1-noyabr.

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda “O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari” nomli VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lim, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-8337-2-4

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Кузибоев Шихназар

ИССЛЕДОВАНИЕ ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИХ СВОЙСТВ И ЭФФЕКТИВНОСТИ МАГНИТНЫХ СОРБЕНТОВ НА ОСНОВЕ РОТОРНОГО ШЛАКА4-11

Исмаилова Зумрад, Анарбаев Анвар

ПРИМЕНЕНИЕ СОЛНЕЧНЫХ УСТАНОВОК В СХЕМАХ КОНДИЦИОНИРОВАНИЯ ВОЗДУХА ЗДАНИЙ В НА ОСНОВЕ ИСПАРИТЕЛЬНОГО ОХЛАЖДЕНИЯ ВОЗДУХА 12-15

Mirjalolova Nargiza

SIMSIZ SENSOR TARMOQLARI (WIRELESS SENSOR NETWORKS) ARXITEKTURASI, TURLARI VA MUAMMOLARI 16-20

TARIX FANLARI

Narzullayeva Zulxumor

SULTON MALIKSHOHNING MA'RIFATPARVARLIK SIYOSATI 21-23

FALSAFA FANLARI

Xoshimov Hakimjon

YOSHLARNING IQTISODIY MUSTAQILLIGI VA IDENTIK O'ZINI ANGLASH JARAYONI: IJTIMOIIY VA PSIXOLOGIK OMILLAR 24-29

FILOLOGIYA FANLARI

Begmatova Dilorom

DARIY TILIDAGI IQTISODIY XARAKTERDAGI SIYOSIY EVFEMIZMLAR 30-32

YURIDIK FANLAR

Каюмова Малика

КРИМИНАЛИЗАЦИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА (ИИ) В ПРЕСТУПНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ: ПРОБЛЕМЫ КВАЛИФИКАЦИИ И ОТВЕТСТВЕННОСТИ 33-36

PEDAGOGIKA FANLARI

Shermatova Saxobaxon

OLIIY TA'LIMDA KLASSTERLI YONDASHUV ORQALI INDUKTIV VA DEDUKTIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI 37-39

Odiljanova Gulasalxon

TA'LIM JARAYONIDA REFLEKSIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI 40-43

Xakimov Tulanboy

NARRATIV PEDAGOGIKANING ANTROPOLOGIK VA AKSIOLOGIK ASOSLARI TARIX TA'LIMIDA 44-46

TIBBIYOT FANLARI

Fayziyeva Nozima

EKOLOGIK OMILLAR TA'SIRIDA PAYDO BO'LADIGAN SURUNKALI KASALLIKLARNING OLDINI OLIHDA TIBBIY-MA'RIFIY FAOLIYATNING PEDAGOGIK ROLI 47-51

FILOLOGIYA FANLARI

DARIY TILIDAGI IQTISODIY XARAKTERDAGI SIYOSIY EVFEMIZMLAR

Begmatova Dilorom A'zamxon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: Alimova Xolida Zikrillayevna

Filologiya fanlari doktori(DSc), professor

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Eron-afg'on filologiyasi kafedrası

Annotatsiya. Ushbu maqolada dariy tili gazeta matnlardagi iqtisodiy sohaga oid siyosiy evfemizmlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: siyosiy evfemizmlar, iqtisodiy-siyosiy evfemizmlar.

POLITICAL EUPHEMISMS OF AN ECONOMIC NATURE IN THE DARI LANGUAGE

Begmatova Dilorom Azamkhanovna

Master's student of Tashkent State University of Oriental Studies

Scientific supervisor: Alimova Khalida Zikrillayevna

Doctor of Philology (DSc), professor

Tashkent State University of Oriental Studies Department of Iranian-Afghan Philology

Annotation. This article analyzes political euphemisms related to the economic sphere in Dari language newspaper texts.

Key words: political euphemisms, economic-political euphemisms.

Jamiyatdagi dinamik o'zgarishlar iqtisodiy sohaga oid siyosiy evfemizmlarning ham dolzarb mavzulardan ekanligini ko'rsatib bermoqda. Bugungi globallashgan jamiyatda nafaqat siyosat, balki iqtisodiy xarakterdagi hodisalar ham evfemizatsiyaga ehtiyoj sezmoqda [4:21].

شرکت گازپروم روسیه که انحصار صادراتی گاز را کنترل می کند، می گوید که صادرات گاز در این کشور ۱۱ ماه سال گذشته ۴۴ در صد کاهش یافته است.

Šerkat-e Gâzprôm-e Ruseya ke enhesâr-e sâderâtî-ye gâz râ kontrol mêkonad, megôyad ke sâderât-e gâz dar in kešwar yâzda mâh sâl-e gozašta čehèl-o-čahâr dar sad kâheš yâfta ast.

"Gaz eksporti monopoliyasini nazorat qiluvchi Rossiyaning "Gazprom" shirkati o'tgan yilning 11 oyida mamlakatning gaz eksporti 44 foizga kamayganini ma'lum qildi".

Jumlada انحصار *enhesâr* "monopoliya" so'zi اقتصاد *hokmrâni dar eqtesâd* "iqtisodiyotda hukmronlik" so'zi o'rnida siyosiy evfemizm vazifasini bajarib, asl mohiyatni g'iloflab kelmoqda. *Monopoliya* so'zi iqtisodiy termin bo'lsa-da, kontekstdan kelib chiqib, matn tarkibida uning evfemistik xarakteri yuzaga chiqmoqda.

۱۵۰ سرمایه گذار خارجی جواز سرمایه گذاری را در افغانستان دریافت کرده اند [6].

Yak sad-o penjâh sarmâyagozâr-e xâreji jawâz-e sarmâyagozâri râ dar Afğânestân daryâft karda ast.

"150 nafar xorijiy investor Afg'onistonga sarmoya kiritish uchun ruxsatnoma oldi".

“sarmâ-yagozârî” sarmoya kiritish, “investitsiya” misolini evfemizm sifatida qabul qildik, chunki ushbu soʻz foyda olish maqsadida qarz berish maʼnosida ishlatiladi. Iqtisodiyotda investitsiyalar kelajakda koʻproq qimmatli resurslarga ega boʻlish umidida bir yoki bir nechta turli aktivlarga moliyaviy resurslarni taqsimlashni anglatadi.

سایر ساختمانهای که تعدادشان به سدها هزار می رسد نیز به دلیل زلزله غیر قابل سکونت شده اند.

Sâyer sâxtemân-hâ-ye ke te'dâd-ešân ba sadhâ hazâr mêrasad niz ba dalil-e zezela ġayr-e qâbel-e sokunat šoda and.

“Boshqa yuz minglab binolar zilzila tufayli yashash uchun yaroqsiz holga kelgan”.

Gapdagi قابل سکونت *ġayr-e qâbel-e sokunat* “yashash uchun yaroqsiz” iborasining *xaroba* soʻzi oʻrnida qoʻllash orqali salbiy mazmunni nisbatan yumshatishga erishilgan. Mazkur misol zilzila tufayli davlat iqtisodiga koʻrsatilgan salbiy oqibat maʼnosini ifodalayotgani uchun uni iqtisodiy xarakterdagi siyosiy evfemizmlar guruhiga kiritdik.

در همین رابطه، محمدرضا پور ابراهیمی، رییس کمیسیون اقتصادی مجلس به اقتصاد ۲۴ گفت: عوامل موثری در کاهش ارزش پول ملی در هر کشوری نقش دارد، بخشی عوامل داخلی و بخشی خارجی مثل تحریمها، کاهش درآمدهای ارزی، کاهش قیمت نفت و بحرانهای منطقه‌ای است [6].

Dar hamin râbeta, Mohammadrezâ Pur Ibrâhêmi, ra'is-e kâmisyun-e eqtesâdi-ye majles ba eqtesâd-e bêst-o çahâr goft: Awâmel-e moasseri dar kâheš-e arzeš-e pul-e melli dar har kešwari naqš dârad, baxš-e awâmel-e dâxeli wa baxš-e xâreji mesl-e tahrimhâ, kâheš-e darâmadhâ-ye arzi, kâheš-e qimat-e naft wa bohrân-hâ-ye mentaqai ast.

“Shu munosabat bilan parlamentning Iqtisodiy komissiyasi rahbari Muhammad Rizopur Ibrohimiy Eqtisod 24 nashriga bergan intervyusida shunday dedi: “Har bir davlatda milliy valyuta qiymatini pasaytirishda samarali omillar rol oʻynaydi, ularning baʼzilari ichki omillar, baʼzilari esa tashqi omillardir, masalan. sanksiyalar, valyuta tushumlarining qisqarishi, neft narxining pasayishi va mintaqaviy inqirozlar”.

Ushbu gapdagi ارزش پول *kâheš-e arzeš-e pul* “milliy valyuta qiymati pasayishi” iborasi “inflyatsiya”, yaʼni “pul qadrsizlanishi” maʼnosida qoʻllanilmoqda.

مقامهای دولت آمریکا تحریمهای اعمال شده علیه ایران را سخت ترین و فلجکننده ترین تحریمها در طول تاریخ تمدن انسان نامیده اند [5].

Maqâm-hâ-ye duwlat-e Âmrîkâ tahrimhâ-ye amâl šoda alayh-e Êrân râ saxttarin tahrimhâ dar tôl-e târix-e tamaddon-e ensân nâmida and.

“Amerika hukumati amaldorlari Eronga nisbatan joriy qilingan qilingan sanksiyalarni insoniyat sivilizatsiyasi tarixidagi eng qattiq va eng ogʻir sanksiyalar deb atadi”.

Jumladagi تحریم *tahrim* “sanksiya” soʻzi مجازات *mojâzât* “jazo” oʻrnida siyosiy evfemizm sifatida foydalanilgan boʻlib, bu orqali boshqa davlatlarning Eronga nisbatan qoʻyilgan “jazo” maʼnosini gʻiloflashga erishilgan. Davlatlarga eʼlon qilingan sanksiyalar, shubhasiz, ushbu davlatning iqtisodiga salbiy taʼsir koʻrsatmay qolmaydi. Shu sababdan ushbu تحریم *tahrim* “sanksiya” soʻzini iqtisodiy xarakterdagi siyosiy evfemizmlar qatoriga kiritdik.

یک کارشناس اقتصادی گفت: سیاست تثبیت ارز اگر همراه با آزادسازی به تدریج قیمت ها و ایجاد شفافیت در اقتصاد کشور باشد قطعاً نتیجه بخش خواهد بود.

Yak kâršenâs-e eqtesâdi goft: Siyâsat-e tasbit-e arz agar hamrâh bâ âzâdsâzi ba tadrij-e qimathâ wa ijâd-e šaffâfiyat dar eqtesâd-e kešwar bâšad qâtaan natija baxš xâhad bôd.

“Iqtisodiy ekspert: Valyutani barqarorlashtirish siyosati narxlarni bosqichma-bosqich erkinlashtirish va mamlakat iqtisodiyotida shaffoflikni yaratish bilan birga olib boriladigan bo'lsa, albatta, samara beradi”.

Keltirilgan jumlada آزادسازی قیمت *âzâdsâzi-ye qimat* “narxni erkinlashtirish” so'z birikmasidan siyosiy evfemizm sifatida foydalanilgan.

آزادسازی نرخ در حال حاضر، منجر به افزایش قیمت می‌شود، بنابراین برای پاسخ به نیاز ارزی با تعریف دامنه قیمتی و تزریق ارز مورد نیاز به بازار، شاهد تثبیت بازار ارز هستیم.

Âzâdsâzi-ye nerx dar hâl-e hâzer, monjar ba afzâyeš-e qimat mêšawad, benâbarin barâye pâsex ba neyâz-e arzi tarif-e dâmana-ye qimati wa tazriq-e arz mawred-e niyâz ba bâzâr, šâhed-e tasbit-e bâzâr-e arz hastêm.

“Amaldagi kursning liberallashuvi narxlarning oshishiga olib keladi, shuning uchun valyutaga bo'lgan ehtiyojga narx oralig'ini belgilash va bozorga kerakli valyutani kiritish orqali javob berish uchun valyuta bozori barqarorlashganiga guvoh bo'lmoqdamiz.”

Ushbu gapdagi آزادسازی نرخ *âzâdsâzi-ye nerx* “kursning liberallashuvi” so'z birikmasi ham yuqoridagi misolga sinonim sifatida foydalanilishi mumkin va gapda birdek iqtisodiy xarakterdagi siyosiy evfemizm vazifasini bajarmoqda.

Tahlillar natijasida shunday xulosa qilish mumkinki, dariy tilidagi gazeta matnlarida iqtisodiy xarakterdagi siyosiy evfemizmlar ham keng salmoqli hisoblanib, bu esa ushbu sohaning evfemizatsiyaga qay darajada ehtiyoji mavjudligini belgilaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Волфсон И.В. Язык политики. Политика языка. – Саратов: Изд-во Саратов. ун-та, 2003. – 125 с.
2. Москвин В. П. Эвфемизмы: системные связи, функции и способы образования // Вопросы языкознания. – М., 2001. – № 3. – С. 58-70.
3. Обвинцева О.В. Эвфемизм в политической коммуникации (на материале английского языка в сопоставлении с русским): Дис. ... канд филол. наук. Екатеринбург, 2003. – 192 с.
4. Рацибурская Л.В. Петрова Н.Е. Язык современных СМИ. Средства речевой агрессии. – М.: Флинта, Наука, 2011. – 150 с.
5. <https://anisdaily.com/>
6. <https://learning.emofid.com/meaning-and-types-of-investment/>

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
MATERIALLARI**
2025-yil, 2-noyabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent:
Scienceproblems team, noyabr, 2025. – 52 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 1-noyabr

ISBN 978-9910-8337-2-4

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.